



THE VIEWS OF THE JADIDS ABOUT THE BANKS OF THE TURKESTAN REGION AT THE BEGINNING OF THE XX CENTURY

Ravshan Tursunov

Doctor of Historical Sciences (DSc), Acting Professor

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: ravshan.tursunov.1980@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: Jadid movement, national progressives, national banking system, economy, merchant, entrepreneur, national wealth, profit

Received: 08.02.25

Accepted: 10.02.25

Published: 12.02.25

Abstract: In this article, the socio-economic situation in the Turkestan region in the beginning of the XX century, the views of the jadids regarding the activities of banks and their importance are researched based on primary sources.

XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O'LKASIDA JADIDLARNING BANKLAR TO'G'IRISIDAGI QARASHLARI

Ravshan Tursunov

tarix fanlari doktori (DSc), professor v.b.

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: ravshan.tursunov.1980@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Jadidchilik harakati, milliy taraqqiyparvarlar, milliy bank tizimi, iqtisodiyot, savdogar, tadbirkor, milliy boylik, foyda

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkiston o'lkasidagi ijtimoiy-iqtisodiy holat, banklar faoliyati va ularning ahamiyati borasida jadidlarning qarashlari birlamchi manbalar asosida tadqiq etilgan.

ВОЗЗРЕНИЯ ДЖАДИДОВ О БАНКАХ ТУРКЕСТАНСКОГО КРАЯ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Равшан Турсунов

Доктор исторических наук, профессор и т.д.

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: ravshan.tursunov.1980@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: джадидизм, национальные прогрессисты, национальная банковская система, экономика, купец, предприниматель, национальное богатство, прибыль.	Аннотация: В данной статье на основе первоисточников исследуется социально-экономическая ситуация в Туркестанском крае в начале XX века, взгляды джадидов на деятельность банков и их значение.
---	--

KIRISH

Milliy taraqqiyparvarlar o'z maqolalarida, safar xotiralarida rivojlangan davlatlarning qo'lga kiritayotgan yutuqlari va u erdagi islohotlarni yoritib borishgan hamda uni xalqqa etkazishgan. Ingeborg Baldauf to'g'ri ta'kidlaganidek, "Behbudiy tomonidan chop etilgan "Oyina" O'rta Osiyo burjuaziyasiga Parij bilan Yaponiya orasidagi zamonaviy hayotni ko'z-ko'z etdi"[1]. Ana shu "Oyina" jurnalida o'lkada milliy bank tizimini shakllantirish va uni rivojlantirish muammosi ko'ndalang turgan bir vaqtda, Yevropa davlatlarida pulni banklarda saqlab, zarur bo'lgan hollarda pulni olib foydalanishayotgani haqida yozilishi ham iqtisodiyotga yangicha yondashuv lozimligini uqtirish edi[2].

Haqiqatdan ham Turkistonda kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining yuzaga kelishi o'lkada banklarga bo'lgan zaruriyatni keltirib chiqardi. Moliyaviy munosabatlarni amalga oshirishda albatta banklarning o'rni katta bo'lgan.

ASOSIY QISM

Jadidlar bank tizimi Turkistonda kapital munosabatlarining shakllanishida muhim vosita bo'lib xizmat qilishini va xorijiy kapitallardan keladigan foydani o'lka xazinasida saqlab qolish hamda mahalliy kapitalni rivojlantirishning asosiy omili ekanligini anglagan holda milliy bank tizimini shakllantirish masalasini ham kun tartibiga qo'yishgandi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, milliy taraqqiyparvarlar har qanday sinfiy tabaqalanishga qarshi bo'lish bilan birga, ayni vaqtda xususiy mulkni saqlab qolish tarafdori bo'lishgan. Bundan tashqari, aholining ko'pchilik qismini tashkil qiluvchi kichik va o'rta mulkdorlarni, er egalari qo'llab quvvatlash lozimligini ta'kidlagan.

Rossiya imperiyasining Turkistonni mustamlaka sifatida "ushlab" turishidagi asosiy tayanchlaridan biri – bu o'lkada faoliyat ko'rsatayotgan banklar edi. Chunki o'lkadagi bu muassasalarning deyarli barchasi hukumat manfaatiga xizmat qilgan. Milliy boylikdan kelayotgan foydaning bu banklarga tushishi natijasida barcha moddiy mablag'ning asosiy qismini mustamlakachilar qo'lga o'tib ketishiga sabab bo'lgan. Turkistonda milliy bank tizimining yaxshi shakllanmaganligi o'z faoliyatini yo'lga qo'ymoqchi bo'lgan har qanday tadbirkor, tijoratchi, dehqon va boshqalarning o'z o'zidan mustamlaka ma'muriyatiga qarashli banklarga qaram bo'lishiga sabab bo'lgan. Chunki mablag' olgan shaxs majburiy ravishda o'sha banklar qo'ygan talablarga ko'nishga hamda katta miqdordagi foiz to'lovlarini to'lashga majbur bo'lishgan.

Bundan tashqari, banklar tomonidan ko'p hollarda naqd pul o'rniga biror bir mahsulot berilgan va bank mijozlari ana shu mahsulotni sotgan taqdirdagina naqd pulni qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan. Shunisi ajablanarliki, mahsulotlarni sotib oluvchilari ham ko'pincha aynan banklarning o'zi bo'lib, bu aholi ichida pul tanqisligini yanada kuchayishiga olib kelgan. Banklar tomonidan mahsulotni bank mijoziga qimmat narxda o'tkazib, sotib olayotganda arzon baho belgilanishi pul oluvchini ahvolini yana qiyinlashtirgan.

Bundan tashqari, bu davrda hukumat banklarida poraxo'rlik avj olib, ssuda va kredit olish jarayoni qiyinlashgandi[3]. XX asr boshida Turkistonda banklar bilan mijozlar o'rtasidagi bunday munosabat o'lkada chayqovchilikning avj olishiga sabab bo'lsa, adolat yuzasidan ish ko'rilmaligi yoki olingan mablag'ni ishlatishni to'g'ri yo'lga qo'ya olmasligi natijasida qarzдорlik oshgan. Juda ko'p dehqonlar, savdogarlar va boshqalar ana shuning oqibatida butun mol-mulki, erlaridan ayrilib xonavayron bo'lishgan.

Saidnosir Mirjalilovning fikricha, Turkistonda savdogarlarning inqirozga yuz tutishiga birinchidan, tijorat sohasida tajribasiz, kichik sarmoyaga ega shaxslar va oluvchidan sotuvchining ko'payib ketganligi, ikkinchidan, olingan tovarni tezroq ketkazish maqsadida uning foyda zarariga qaramasdan sotishganligi, uchinchidan, banklar sabab bo'lgan.

Banklarning mamlakat iqtisodiyoti, savdogarlar, tadbirkorlar, aholi turmushidagi o'rni, ulardan foydalanish yo'llari borasida ham jadidchilik vakillari xalqqa tushuntirib borganlar. To'g'ri, o'sha davrda banklardan olingan kreditlar evaziga savdogarlar, boylar va aholining boshqa tabaqalari xonavayron bo'lishgan. Lekin mahalliy ziyolilarning fikricha, bunga banklar emas, balki xalqning olgan mablag'ini to'g'ri sarflamaganligi sabab bo'lgan. Bu borada M. Behbudiyning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir. U savdoning inqiroziga sabab bo'layotgan omillardan biri savdogarlarning mablag'larni to'y va aysh-ishratga ortiqcha sarf qilayotganligi bo'lib, bu mablag'larning aksariyati banklardan olinayotgan qarzlar hisoblanib, uni vaqtida qaytarolmaganliklari uchun butkul xonavayron bo'layotganligini yozgan. Bundan tashqari uning fikricha, savdoning izdan chiqishiga yana banklardan to'g'ri foydalanmaslik va tovarlarni nasiyaga sotilishi natijasida qilingan xarajatning o'z vaqtida qoplanmaganligi, naqd pul tushumining o'z vaqtida bajarilmaganligi sabab bo'lgan. Maxmudxo'ja Behbudiy o'z fikrini quyidagi misol bilan isbotlaydi: "... Masalan Abdullaboy bazzozning o'zinda 5 ming sarmoyasi bor. Do'konidan 500 so'mlik molni 6 oy va'da ila nasiyaga sotdi. Albatta, bu sotilg'on molga aqlan 50 so'm foyda qo'yub ediki, yuzda o'n yuzasidan bo'lur (yuz so'miga o'n so'mdan to'g'ri keladi). Endi do'kondagi mol ozaydi. Ya'ni mol olmoq uchun aqcha (pul) yo'q. Kanturdan (kontora) nasiya olsa, ulda nisbat 7-8 hissa qiymat berur. Masalan, 400 so'mlik mol 470 so'm, balki undanda ziyoda qilib berar. Hamda yaxshi molg'a yomoni qo'shar"[4]. Savdogarlarning xonavayron bo'lishiga sabab bo'layotgan omillardan yana biri, ularning tovarni sotish va sotib olish joyini yaxshi

bilmasligi, jahon bozoridagi voqealardan, ziroatchilikdagi yangiliklardan bexabar holda tavakkal ish tutganligi bo'lgan. Yana bir asosiy sabab tijorat ilmini yaxshi egallanmaganligi, hisob kitobni yaxshi bilmaganligi, natijada boshqalar tomonidan osongina aldanib, o'z zarariga ishlayotganligi edi.

Saidnosir Mirjalilov ham savdo ishlarining izdan chiqish sabablarini o'lka aholisining aksariyatini bu soha ilmi, qoidalaridan bexabar holda savdogarlik bilan shug'ullanayotganligi, xatto oluvchilardan ham ko'ra sotuvchilar sonining ko'payib ketganligida, banklardan to'g'ri foydalana olmayotganliklarida, asosiysi bank xo'jayinlari chet elliklar bo'lganligi, yirik sarmoyadorlarning kamayib ketayotganligida hamda bor mablag'ini ham kerakli, foyda keltiradigan ishlarga sarflay olmayotganligida ko'radi. Uning fikricha, banklardan qarz olayotgan savdogar avvalambor keladigan daromadni aniq hisob-kitob qilib, foyda olishga ko'zi etgan taqdirdagina bank bilan hamkorlik qilishi zurur. Aks holda ko'pchilik savdogarlar kabi bankrotga uchrashi muqarrardir. Muallif bu holat mulkdorlarni butun mol mulkidan ajrashiga hamda faqirlikka tushishiga olib kelishi mumkinligini uqtiradi[5].

Shuningdek, savdo ilmidan bexabar holda ish tutish tijoratchilarni kasodga uchrashining asosiy sabablaridan biri edi. Shuning uchun "Tijorat va maktab" nomli maqola muallifi ham savdo yaxshi bo'lishi uchun avvalambor, u bilan shug'ullanayotgan shaxs ushbu soha maktabini o'tagan bo'lishi lozimligini uqtirib, buning uchun tijorat ilmini o'qitishga ixtisoslashgan maktablar faoliyati keng yo'lga qo'yilishi lozimligini ta'kidlagan[6].

Turkiston taraqqiyparvarlaridan biri Muxtor Bakr savdo va tijoratning rivojlanishiga sabab bo'ladigan omillarning eng muhimi bank va birjalar hisoblanishini qayd etgan[7]. U hozirgi zamonda (XX asr boshida) bank bilan muomala qilmagan va bankda o'ziga hisob raqami ochdirmagan savdogar kam ekanligini, qisqasi ongli savdogarlar uchun banklar havo va suvdek zarur ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, banklar orqali faol yahudiy maklerlari garchi pullari bo'lmasada, o'n minglab, yuz minglab foyda ko'rayotganliklarini bildiradi. Muallif o'z fikrlarini davom ettirib, "lekin bizning musulmonlarda bu kuna qaror banklar va kapitalistlar yo'q edi. Biz faqat ovro'paliklarning xususan, yahudiy kapitalistlarning temir qo'llari ostinda ezilib keldik va hanuz ezilmoqdamiz" deb ta'kidlaydi[8].

Darhaqiqat, XX asr boshida Turkiston savdogarlari faqat yahudiy va Rossiya banklari bilan faoliyat olib borganlar. Bunday holatda foydaning katta qismi bank egalari yahudiylarga, rossiyalik amaldorlarga, ma'lum bir qismi mahalliy savdogarlarga to'g'ri kelgan. Muxtor Bakr musulmon savdogarlari yahudiy va Rossiya bankirlariga maklerlik qilib, milliy boylikning ular foydasiga oqib kirishiga vositachi bo'layotganliklarini, agar bu ishga vatan va millatning manfaati nuqtai nazaridan qaralsa, ulug' jinoyat hisoblanishini ta'kidlab, endi bu xatoliklarni qayta takrorlamaslik zarurligini aytadi. "Agar, – deydi muallif, – dunyoda boshqa millatlar qatorinda hur

va muxtor bo'lib, to'q va butun bo'lib yashamoqchi bo'lsak, bizga albatta savdo va sanoatimizni taraqqiy qildurug'a xalqimizning olish berishlarini bir yo'lga solib, ilmimizni boyiturg'a kerakdur. Chunki boy va hunarli millat hech qachon hor va zalil bo'lmaydurlar. Milliy boyliqimizni chetlarga soy' etmayincha, o'z xalqi-mizg'a beruv va yurtimizda qoldiruv choralariga kiriturga tegishligimiz. Buning uchun hech vaqt o'tkarmasdan milliy sarmoya bilan milliy turk banki ochish zarurdir"[9].

Demak, jadidlar yangi iqtisodiy muassasalarni ochish, aholi ijtimoiy ahvolini yaxshilashnigina emas, balki o'lka mustaqilligini saqlab qolishning asosiy omillaridan biri ekanligini e'tirof etgan. Bu vazifani amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib, savdogarlarni birlashishga va millatni yuz berishi mumkin bo'lgan halokatdan qutqarishga chaqirgan. Muxtor Bakr kabi millatparvarlar o'lka mustaqilligi va istiqbolini iqtisodiy qudratda ko'rgan. Uning fikrlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, o'sha davrda Turkiston hayot-mamoti iqtisodiy qaramlikdan qutulishga bog'liq bo'lib, bu o'z o'rnida milliy sarmoyalarni ko'paytirish va o'z qo'limizda saqlab qolishni talab qilgan. Buning uchun esa savdogarlar sarmoya tikib, milliy bankni ta'sis etishlari va u erga o'z mablag'larini qo'yishlari lozim bo'lgan. Ana shu mablag'lar nafaqat savdogarlarning pul aylanmasini barqarorlashtirib, ustama qarzlarni kamayishiga olib keladi, balki bu muassasalardagi mablag' orqali mahalliy sanoatni taraqqiy ettirish imkoniyatini tug'diradi. Natijada, yangi ish o'rinlari paydo bo'lib, ishsizlik kamayadi hamda aholi ijtimoiy ahvolini yaxshilanishiga olib keladi. Ikkinchidan, chetga chiqib ketayotgan xom ashyolar o'zimizda qolib, tayyor mahsulotlar soni ortadi. O'lkadagi qimmat narxdagi import qilingan mahsulotlar o'rnini mahalliy, arzon tovarlar egallaydi. Davlatning eksport salohiyati oshadi. Bu esa narx-navoning stabillashuviga hamda milliy valyutaning qadrini oshishiga zamin yaratadi. O'lkadagi bunday iqtisodiy o'sish, muxtoriyatni boshqalarga moddiy jihatdan tobe bo'lishdan qutqaradi. Iqtisodiy qaramlikdan qutulish asta sekin siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritishga yo'l ochadi.

Milliy taraqqiyparvarlardan yana biri Saidnosir Mirjalilov banklar faoliyatining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi va savdogarlarning undan to'g'ri foydalana olmayotganligini qayd etib, "...boshqa millat savdogarlari bankalar vositasi ila zo'r-zo'r ishlar vujudga chiqarub turgan zamonlarida bizam savdogarlar bankalar vositasi ila yaxshigina ishlaridan ajrab turibdurlar. Buning sababi o'qumogonligimiz, savdo ilmini yaxshi bilmaganimiz...", deb yozgan[10].

Yuqoridagi ma'lumotlardan Turkistondagi savdoning barcha tarmog'ini izdan chiqishini va bank tizimidagi muammolarni mahalliy ziyolilar tanqid qilish yoki undan chiqish yo'llarini ko'rsatish bilan chegaralanib qolgan, degan xulosa kelib chiqmasligi lozim. Chunki ziyolilar o'z o'rnida mahalliy tadbirkor va savdogarlar bilan birlashib bu qiyin vaziyatdan chiqish uchun amaliy harakatlar ham qilishgan. Jumladan, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abduhakim mulla Ikromov, Abdulla Avloniy, Otaxon Nazarxo'jaev, Nazir Xo'jaev, Nizomiddin Qori Husainov,

Abdusami Qori Hidoyatboev, Muhammad Yusuf Yaqubov, Karim Qori Azimboev, Muhammadxon Poshshoxo'jev kabi tadbirkorlar o'lkada yangi usul maktablarini kitob bilan ta'minlovchi "Umid" jamiyatini tuzishga ruxsat berishini so'rab hukumatga murojaat qilishgan. Ushbu jamiyat tashkilotchilari tomonidan tuzilgan 19 banddan iborat № 9511 raqamli reestri ostida Toshkent shahrida 1910 yil 2 avgustda notarial tasdiqdan o'tkazilgan shartnoma mazmunidan shuni ko'rish mumkinki, mahalliy ziyolilar qonuniy yo'l bilan xalq ma'naviyatini ko'tarish uchun ochiqdan-ochiq harakat qilishgan[11]. Rossiya hukumati bu taklifni rad qilganligiga qaramay, jamiyat o'z faoliyatini yashirin tarzda olib borgan. Tashkilotchilarning jamiyatni tuzishdan maqsadi nafaqat maktablarni kitob bilan ta'minlash, balki, o'lkada kitob savdosini ham qo'lga olish bo'lgan[12]. Savdodan tushgan foydani mablag' etishmasligi tufayli nashr etilishi to'xtab qolgan "Samarqand" kabi mahalliy gazetalarning qayta yo'lga qo'yish ishlariga sarflashgan[13].

Bundan tashqari Abdulhamid Sulaymon (Cho'lpon) 1914 yilda Andijonda sarmoyasi 26 ming so'mdan iborat bo'lgan "Kredit banki" ochilayotganligi va uning 180 nafar mijozining 130 dan ortig'i musulmonlar ekanligi, bankni Eshonxon Mahzum Odilxoja o'g'li, Mir Haydarboy Mirjalil o'g'li, Sa'dullaxo'ja Tursunxo'ja o'g'li kabi mahalliy boylar ochishganligi[14] haqidagi xabari jadidlarning matbuot orqali milliy banklar zarurligi borasida yuritgan targ'ib-tashviqotlari besamar ketmaganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, Turkiston taraqqiyparvarlari fikrlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, demak jadidlar nuqtai nazarida o'lka iqtisodini izga tushirish uchun avvalambor tadbirkorlikni rivojlantirish, ya'ni yangi texnologiyalar bilan ta'minlangan zavod, fabrikalar, korxonalar ochish, ularni kichik va o'rta mulkdorlar qatlamiga berish, buning uchun esa ularga sarmoya beradigan va moddiy tayanch bo'ladigan, turli sohalarga ixtisoslashgan milliy banklar ochish lozim. Milliy banklar ochish uchun esa mahalliy mulkdorlar mablag'i birlashtirilishi kerak. Shuningdek, yuqoridagi sohalar rivoji uchun zamonaviy bilimga ega mahalliy kadrlar lozim bo'lib, ularni tayyorlash ham iqtisod bilan bog'liq edi. O'lka iqtisodining asosini esa qishloq xo'jaligi tashkil qilib, uni rivojlantirish turkistonliklar oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblangan. Milliy taraqqiyparvarlar ham ushbu sohani o'lka aholisining manfaatlariga moslashtirish, undagi muammolarni hal etish, mahalliy ziroatchilarni oyoqqa turg'azish, umuman agrar sohani mustamlaka tizimidan qutqarishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishgan va buni ularning maqolalari mazmunidan ham bilish mumkin.

Millat taraqqiyparvarlari dehqonlar hayotini yoritishda o'z ko'rgan va guvoh bo'lgan voqealariga asoslanishgan. Bu ularga muammoning ildiz-larini ochib berishga hamda uning echimini topishga, mavjud holatga ob'ektiv baho berishlariga yordam bergan. Abdulhamid Cho'lpon o'zining bir maqolasida dehqonlarni yangi texnologiyalardan foydalanmayotganliklarini tanqid qilib yozgan. Keyinchalik buning sabablarini topish maqsadida, qishloqlarga safar qilib,

dehqonlar bilan suhbatlashgan. U ko'rganlari va qishloq ziroatchilari bilan bo'lgan suhbatdan xulosa qilib, o'zining navbatdagi maqolasida shuni e'tirof etadi-ki, yuqoridagi muammoning sababi, dehqonlarning qo'lida shaxsiy mablag'lari yo'qligi uchun har bahorda ish boshlashga boylardan ikki yoki uch barobar qilib qaytarish evaziga qarz olishga majbur bo'layotganligidir. A. Cho'lpon so'zining so'ngida barcha millatparvar yoshlarni masalani hal qilish yo'llarini izlashga va unga jiddiy e'tibor berishga chaqirgan[15]. Ushbu maqolaning ostida idoradan javob tariqasida, "Sadoi Farg'ona" gazetasi muharririyati o'z taklifini e'lon qilgan. Unda yozilishicha, dehqonlarni qarzдорlik girdobidan qutkarish uchun qishloqlarda "qarzxona (mulkiy kredit markaz) lar" ochish kerak. Bunday kredit muassasalarini tashkil qilish va undan foydalanish yo'llarini ishlab chiqish albatta millat ziyolilari, shuningdek, jadidlar zimmasida ekanligi ta'kidlanadi[16].

Gazetaning 1914 yilning 14 sentyabr sonida e'lon qilingan "Farg'onada banka ochmoq" sarlavhali maqolaning mazmuni esa milliy taraqqiyparvarlar turli da'vat, chaqiriqlar bilan chegaralanib qolmasdan, yuqorida ko'tarilgan muammoning echish uchun amaliy harakatlar ham olib borganligidan guvohlik beradi. "Sadoi Farg'ona" gazetasining 59-sonida chop etilgan ushbu maqolada, jadidlarning dehqonlarni qarzдорlikdan qutqarish, qishloq xo'jaligini izchil rivojlantirish maqsadida, ziroatchilarga kredit beruvchi maxsus bank ochish tashabbusi bilan chiqqanligini ko'rish mumkin. Ular dehqonlar faoliyatini moliyalashtiruvchi bunday banklar ochish uchun mahalliy sarmoyadorlarga bekor turgan mablag'larini ana shu muassasaga qo'yishni taklif qiladi. Milliy taraqqiyparvarlarning fikricha, bu birinchidan, mulkdorlarning boyligi miqdorini yanada oshishiga va saqlanib qolishiga kafolat bo'lsa, ikkinchidan, agar bankdagi mablag'lar faqat mahalliy boylarning sarmoyalaridan iborat bo'lsa, bankning egasi ham millatning o'zi bo'ladi. Uchinchidan, dehqonlarga beriladigan kreditlar foizi kam bo'lganligi uchun ular ham doimiy qarzдорlikdan qutulib, ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yib olishiga imkon beradi. Gazeta muharririyatining: "Bul bankani ochmoqni xohlaguvchilar bo'lsalar "Sadoi Farg'ona" idorasiga murojaat qilsalar, shunday bankalarni ochmoqqa darkor bo'ladurgan dasturul amal kitoblarni ko'rsaturmiz. ... Agar Farg'ona muzofotini qaysi shahrida jamiyati xayriya ochmoqqa ixtiyor qilguvchilar bo'lsa, maslahatini qilub, kerakli joydan javob so'rab bermiq mumkindur", deb yozgan so'zlari jadidlar dehqonlar faoliyatini moliyalashtirishga ixtisoslashgan bunday kredit banklarini tashkil qilishning nazariy programmasini hamda amaliy rejasini puxta ishlab chiqqanligini anglash mumkin[17].

Turkistonda kredit sohasida yuz bergan tartibsizlik ham qishloq xo'jaligiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmagan. Chunki o'z mehnati bilan ijaraga olingan erga paxta ekish, uni sug'orish va mahalliy bozorlarda paxtani sotish mobaynida narxni ushlab turish mayda dehqonlardan 70-80 so'm, agar yollanma ishchilar yordamida bo'lsa 150-200 so'm xarajatni talab qilgan. Biroq mayda dehqonlarda odatda bunday mablag' bo'lmagan va ular kreditorlar tomonga

chopishga majbur bo'lgan. Farg'ona viloyatida bunday uyushmalar 8 ta bo'lib, yilda 100-150000 rubl oborot qilishgan. Paxtachilar-ning kreditorlardan va ayniqsa xususiy shaxslardan pul olish jarayoni juda qiyin kechgan. Kreditorlar odatda paxta ishlab chiqarish texnologiyasi bilan ta'minlash sharti bilan veksel (o'sha vaqtda pul o'rnini bosuvchi qimmatbaho qog'oz turi) ni 15% - 25%, ba'zida 40% - 80% ini olishgan. Pul beruvchi uyushmalar kredit uchun kamdan-kam pul berishgan. Odatda pul o'rniga un, shakar, choy va boshqa narsalar berishgan. Dehqon o'ziga kerakli mablag'ga ega bo'lish uchun ana shu tovarni sotish kerak edi. Ko'p hollarda bu mahsulotlarni sotib oluvchilari ham o'sha shaxslarning o'zi bo'lishgan. Qarzini uzish uchun dehqon kreditorga kelasi hosildan berishi kerak bo'lgan[18]. Natijada qarzni berish vaqtida dehqon o'z kreditoriga qaram bo'lib qolgan. Agar buni ustiga bahorning sovuq kelishi yoki vaqtida yomg'ir yog'masligi, shuningdek kuzgi sovuq qo'shilsa, dehqonning holati yanada yomonlashgan. Masalan, 1912 yil bahorida yuz bergan sovuq iqlim erta paxta ekkan dehqonlarga juda katta zarar etkazgan va yangi kredit evaziga paxtani qayta ekishga majbur bo'lishgan. Bu hosilning 80 % ini sudxo'rlar qo'lga o'tib ketishiga olib kelgan. Qonun hamma vaqt kreditorlar tarafdagi bo'lib, ular doim texnikadan tashqari hosilni, ijaraga olingan erni, umuman dehqonni qo'lga kirishi lozim bo'lgan barcha narsasini musodara qilishi mumkin bo'lgan[19].

XULOSA

Demak, milliy taraqqiyparvarlarning fikricha, qishloq xo'jaligidagi muammolarni bartaraf qilish uchun avvalambor, erlar o'z egalarini topishi, dehqonlar erlarga nisbatan munosabatini o'zgartirgan holda, uning har bir qarichidan unumli foydalanishi lozim. Bundan tashqari, erga ishlov berish va mahsulot etishtirishdan tortib to hosil yig'ilishigacha bo'lgan jarayonga yangi texnologiyalarni tadbiq qilish lozim. Dehqonlarni moddiy tomondan ta'minlovchi maxsus milliy banklar hamda ularga yo'l-yo'riq ko'rsatib turuvchi uyushmalar, etishtirilgan mahsulotni odilona baholash va uni arziqli bahoda sotilishini ta'minlaydigan mahalliy birjalar tashkil qilinishi lozim edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Baldauf I. Mahmudxo'ja Behbudiy Falastinda / Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to'ldirilgan 2-nashri. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – B. 262.
2. Behbudiy M. Safar xotiralari. (Qasdi safar) / Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997 – B. 92.
3. O'zMA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1784-ish, 7-varaq.
4. Behbudiy M. Oh bonklar bizni barbod etdi // Oyna. – 1914. – № 19. – B. 342-344.
5. Mirjalilov S. Turkistonda savdogarlik // Sadoi Turkiston. 1914 yil, 11 may.
6. Niyoz Abdurahmon o'g'li. Tijorat va maktab // Sadoi Farg'ona. 1914 yil, 25 iyun.

7. Muxtor B. Turkistonda milliy bank ochmoq kerak // Ulug' Turkiston. 1918 yil, 19 yanvar.
8. Muxtor B. Turkistonda milliy bank ochmoq kerak // Ulug' Turkiston. 1918 yil, 19 yanvar.
9. Muxtor B. Turkistonda milliy bank ochmoq kerak // Ulug' Turkiston. 1918 yil, 19 yanvar.
10. Mirjalilov S. Turkistonda savdogarlik // Sadoi Turkiston. 1914, 11 may.
11. O'zMA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 901-ish, 1-varaq.
12. Абдуллаев Р.М. Интеграционные процессы в мусульманском мире и туркестанские джадиды // Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar). Davriy to'plam № 1. Toshkent: Universitet, 1999. – S. 78.
13. O'zMA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1311-ish, 200-201-varaqlar.
14. Sulaymoniy A. Andijonda yangi bank // Oyna. – 1914. – № 13. – B. 211; Karimov N. Cho'lpon. Ma'rifiy roman. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 39-43.
15. Andijon – Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik ishlari // Sadoi Farg'ona. 1914 yil, 7 may.
16. Idora // Sadoi Farg'ona. 1914 yil, 7 may.
17. Farg'onada banka ochmoq // Sadoi Farg'ona. 1914 yil, 14 sentyabr.
18. Оглоблин В.Н. Промышленность и торговля Туркестана. –М., 1914. – С. 14 -15.